

KASB-HUNAR MAKTABLARINING QISHLOQ SHAROITIDA O'QUVCHILARNI O'QITISHDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIF ETILGAN YECHIMLAR

Samandarova Latofat Raxmonovna

Samarqand shahar 49-umumiy o'rta ta'lim maktab

kasb-hunarga yo'naltiruvchi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada kasb hunar makablari va ularning o'qitish tizimi shuningdek, qishloq sharoitida ta'lim olish istagida bo'lgan o'quvchilarni o'qitishdagi bir qancha muammolar va ularga yechimlar haqida mulohazalar o'rin olgan bo'lib, bu ko'pchilik uchun foydali bo'ladi degan umiddamiz.

Kalit so'zlar: Kasb-hunar maktablari, o'quvchi, ota-ona, muhit, sharoit, ta'lim tizimi, muammo, taklif, yechim.

"Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda"

Shavkat Mirziyoyev

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar juda ham ko'p. Bulardan biri maktablarda tahsil olayotgan o'quvchi 9-sinfidan so'ng o'zlari xohlagan yo'nalishda kasb-hunar sirlarini egallash maqsadida kasb-hunar maktablariga o'qishga kirish imkoniyati berildi. Bu esa juda ham kelajagimiz egalari bo'lmish yoshlar uchun ana shu imkoniyatlardan biri bo'ldi. Qolaversa, kasb-hunar maktablarining o'qitish tizimi va sharoitlari yangilanib xalqaro miqyosida rekonstruksiya qilindi. Bu albatta yaxshi sababi kollejlarda yopilgan ketgani bois kasbga qiziqishi bor bo'lgan o'quvchilarda bir muddat imkon qolmay qolgan edi.

Masalaning yana bir tomoni bor-ki o'zim maktabda amaliyotchi psixolog bo'lib ishlaganim bois, kasb-hunar maktablarining aksariyati shahar markazida joylashganligidan uyi ko'proq ana shu kasb-hunar maktabi joylashgan hududga yaqin bo'lgan o'quvchilar o'qish istagini bildirganlar ko'p bo'ladi va shu yerda o'qishadi. Albatta qolganlar ham bu maktabda o'qish istagi bo'ladi. Lekin tarafi esa moddiy tomonga borib taqaladi. Bir qancha o'quvchilarimiz tumanidagi kasb hunar maktabida o'qish istagini bildiradi va ota onasiga aytadi. Ota-onasi ham rozi bo'ladi. O'qishga ham kiradi ammo keyinchalik bir oy o'tar o'tmas yo'l va yo'lkira muammosi kelib chiqadi. Uchta moshina almashinib kelishi va dadasining puli qolmaganligi, taksi kutib qolganligi yoki bo'lmay qolishi oqibatida kech kelish sabablari va boshqalar. Shu bilan o'quvchi o'zi istaganidek maza qilib o'qiy olmaydi, kasb-hunarni ham o'rganmaydi. Faqat muammolar qo'liga deb his qiladi o'zini. Oxir-oqibat yana o'zining maktabiga qaytib boradi.

Fikrimcha bunday holatlarni oldini olish uchun birinchi navbatda, o'quvchilarning o'zining xohishi bilan bir qatorda, ota-onalarning o'qitishi uchun yetarlicha shart-sharoit yarata olishi haqida suhbat o'tkazilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bunda maktab amaliyotchi psixologlari aynan shu jarayonga bosh-qosh bo'lishi kerak. Bundan tashqari direktor, o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari ham nazarotga olishi kerak. Yana bir boshqa masala bor-ki ko'pgina kasb-hunar maktablariga maktabdagi "bezori", "eplab bo'lmaydigan" o'g'il bola o'quvchilarni o'sha yerda tarbiyalanasan, - deya topshirish holatlari ham bo'ladi. Bu esa albatta yaxshi emas. Birinchi navbatda o'zining yoqtirgan kasbi, hunari haqida suhbatlar tashkil qilishi, "Ochiq eshiklar kuni" larida sayohatlar uyushtirilishi kerak bo'ladi.

Kasb-hunar maktablari uzoqda joylashgan tuman hududlaridan markazda, chetda joylashgan yagona bunday maktab borligi yuqorida aytganimizdek, ko'plab chekka joylardan qatnaydigan o'quvchilar uchun muammolarni kletirib chiqaradi. Lekin bunga yana bir yechim aynan shunday kasb hunar maktablarini bitta hududda, markazda bir nechta emas, balki qishloq joylarida ham tashkil etilishi kerak. Bunda avvalo o'sha hududning iqlimi va sharoiti, o'quvchilar soniga ahamiyat berishi kerak. Shuningdek, o'sha hududdagi yoshlar qaysi kasbga qiziqadi, qaysi sohalar yaxshi rivojlanganligiga e'tibor berish zarur. Yana shu tanlagan sohasida keyinchalik faoliyat olib keta oladimi, ish bormi degan savollarni o'z oldiga qo'yishi kerak bo'ladi.

Qishloqlarda shuningdek, chekka hududlarda joylashgan kasb-hunar maktablari esa ko'proq zamonaviy yangi bilimlar va tajribalarni o'quvchilarga o'rgatishi kerak bo'ladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa, o'quvchilarni har tomonlama jahon amaliyotida sinalgan yangi texnologiyalardan boxabar qilishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kasb-hunar.uz
2. Ziyonet.uz
3. Saviya.uz